

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR KENGASHINING  
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
MINISTRLER KEÑESINIŇ  
QARARI**

2021 - yil 14 - oktabr

114-13-0-Q/21

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashi

**“Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari”ni tashkil etish yoki faoliyat  
ko‘rsatayotganlarining chegaralarini o‘zgartirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5088-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-maydagi “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi hamda yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi to‘g‘risida nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 294-sonli qaroriga, Tashqi savdo, investitsiyalar, mahalliy sanoatni rivojlantirish va texnik jihatdan tartibga solish masalalari bo‘yicha Hukumat komissiyasining 2021-yil 15-avgustdagi 48-sonli Bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5-, 6- va 25-moddalariga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Tashqi savdo, investitsiyalar, mahalliy sanoatni rivojlantirish va texnik jihatdan tartibga solish masalalari bo‘yicha Hukumat komissiyasining 2021-yil 15-avgustdagi 48-sonli Bayoni ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasida tashkil etilishi yoki faoliyat ko‘rsatayotganlarining chegaralarini o‘zgartirilishi belgilangan “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari” manzilli ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (V.Jollibekov), mutasaddi vazirlik, idoralar, Nukus shahri va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda:

Mazkur yoshlar sanoat zonalari hududlarida amalga oshirilishi belgilangan loyihalarning manzilli ro‘yxatlarini shakllantirib, tarmoq jadvallarini tegishli

tartibda tasdiqlash;

hududlarda tashkil etiladigan yoshlar sanoat zonalarini belgilangan muddatlarda to'liq ishga tushirilishini ta'minlash;

Nukus shahri va tumanlar hokimliklari rahbarligida tuzilgan ishchi guruhlari tomonidan yoshlar sanoat zonalarini hududida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish loyihalarini amalga oshirish uchun investitsiya buyurtmanomalarini o'z vaqtida ko'rib chiqish;

yoshlar sanoat zonalarini hududidan yer maydonlari va bo'sh binolarni yosh tadbirkorlik subyektlariga ajratilishini ta'minlash maqsadida ularni elektron onlayn-auksion savdolariga o'z vaqtida joylashtirish vazifasi topshirilsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi (A.Dosnazarov), Qoraqalpog'iston Respublikasi transport vazirligi (S.Saparov), "Qoraqalpog' hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJ (Z.Kerimzatov), "Hududgaz Qoraqalpog'iston" gaz ta'minoti filiali (X.Aymanov), "Qoraqalpog' suv ta'minoti" (A.Qudaynazarov), O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi (T.Baekiev) - Yoshlar sanoat zonalarini hududidagi investitsiya loyihalarining obyektlari foydalanishga topshirilgunga qadar zarur muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishini va mavjud resurs hamda texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib, ularga talab etiladigan ichimlik suvi, tabiiy gaz, elektr energiyasi yetkazib berilishini ta'minlasin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari B.Xabibullaev zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi**  
**Vazirlar Kengashi Raisi**



**K.Sariyev**

Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар  
Кенгашининг  
2021 йил 14 октябрдаги  
114-13-0-Q/21-сон қарорига  
1-илова

**Tashkil etilishi rejalashtirilgan “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari” uchun belgilangan yer  
maydonlarini o‘zgartirish uchun taklif etilayotgan hududlarning**

**MANZILLI RO‘YXATI**

<b>№</b>	<b>Tuman nomi</b>	<b>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi PQ-5088-sonli Qaroriga asosan tasdiqlangan manzil</b>	<b>Egallagan yer maydoni (Ga)</b>	<b>Yangi taklif etilayotgan hududlar manzili</b>	<b>Egallagan yer maydoni (Ga)</b>
<b>1</b>	Nukus tumani	“Krantav” OFY	4,9	“Samanbay” OFY, davlat zaxirasidagi bo‘sh yer maydonlari	1,1
<b>2</b>	Xo‘jayli tumani	“Kun nuri” MFY	3	“Qulop” OFY, davlat zaxirasidagi bo‘sh yer maydonlari	3
<b>3</b>	Ellikqal’a tumani	“Ellikqal’a” OFY	2	“Navoyi” MFY, davlat zaxirasidagi bo‘sh yer maydonlari	2
<b>4</b>	Beruniy tumani			Eski Shobboz dehqon bozori	5,3